

## XULIO KORTASAR HIKOYALARIDA FANTASTIKA VA REALIZM SINTEZI

**Ma'suma Obidjonova**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, PhD

### Annotatsiya

Ushbu maqola Xulio Kortasarning “Ishg‘ol qilingan uy”, “dahshatli tushlar”, “Aksolotl” hikoyalari misolida realizm va fantastika sintezi qanday estetik va semantik mexanizm asosida amalga oshganini tahlil qilishga qaratilgan. Kortasar hikoyalardagi g‘ayritabiiylik qanday psixologik va falsafiy ma’no kasb etishi, reallik va g‘ayritabiiylik o‘rtasidagi o‘zaro almashinish qanday badiiy usullar orqali amalga oshirilishi bayon etiladi. Muallifning asarlariga tayanilgan holda izchil ilmiy tahlil yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Xulio Kortasar, fantastika, realizm, ontologiya, identitet, Lotin Amerikasi adabiyoti, zamonaviy hikoyachilik.

### Abstract

This article focuses on analyzing the aesthetic and semantic mechanisms through which the synthesis of realism and fantasy is realized in Julio Cortázar’s short stories “House Taken Over,” “The Night Face Up,” and “Axolotl.” It explores how the supernatural elements in Cortázar’s narratives acquire psychological and philosophical significance, and how the interchange between reality and the fantastic is artistically constructed. A consistent scholarly analysis is conducted based on the author’s selected works.

**Keywords:** Julio Cortázar, fantasy, realism, ontology, identity, Latin American literature, contemporary short fiction.

Zamonaviy adabiy jarayonlarda fantastika va realizm o‘rtasidagi chegaraning tobora qisqarib borayotgani ko‘plab yozuvchilar ijodida o‘z aksini topgan murakkab hodisadir. Poststrukturaviy adabiyshunoslikda bu hodisa ko‘pincha janrlararo

simbioz deb talqin etiladi<sup>1</sup>. Ayniqsa XX asr o‘rtalaridan boshlab, realizm hayotiylik, kuzatuvchanlik va ijtimoiy mavzularga asoslangan yondashuv sifatida, fantastika esa g‘ayrioddiy, aql bovar qilmas holatlarni tasvirlash orqali voqelikni yangicha idrok etish usuli sifatida qaralgan (Jackson, 1981). Aynan shu adabiy mezonlar chorrahasida joylashgan asarlar orasida Xulio Kortasarning qisqa hikoyalari alohida o‘rin egallaydi. Uning hikoyalari o‘ziga xos “dual voqelik” asosida qurilgan bo‘lib, unda bir tomondan maishiy realizm (kundalik hayot, real makon), ikkinchi tomondan falsafiy fantastika (ong, tush, vaqt siljishi, metamorfik o‘zgarishlar) mavjud. Kortasar bu ikki diskursni qarama-qarshi qo‘ymaydi, balki bir-birini to‘ldiruvchi unsurlar sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv, asosan, Lotin Amerikasi modernist yozuvchilari orasida shakllangan fantastik realizm oqimining yuksak namunasi hisoblanadi.

“Dahshatli tushlar” hikoyasi Xulio Kortasarning voqelik va tasavvur o‘rtasidagi chegaralarni izdan chiqarishga qaratilgan eng muvaffaqiyatli tajribalaridan biridir. Hikoya ikki asosiy narrativ tizimga ega. Birinchisi, zamonaviy shahar hayotida halokatga uchragan bemor, ikkinchisi asteklar davrida inson qurbonligi uchun tutib olingan mayya yigit. Har ikki syujet ma‘lum nuqtada kesishadi yoki parallel tasvirlanadi hamda biri ikkinchisini to‘ldiradi. Oxir-oqibatda o‘quvchi qaysi voqelik “haqiqat” edi, degan savol bilan yuzlashadi. Kortasar bu hikoyada ontologik inversiya usulidan foydalangan, ya‘ni avvaliga real bo‘lib ko‘ringan syujet (kasalxonadagi bemor) oxir-oqibat tush bo‘lib chiqadi, g‘ayrioddiy bo‘lib tuyulgan syujet esa (mayya davridagi voqealar) haqiqatga aylanishi mumkin<sup>2</sup>. Shu tarzda, yozuvchi klassik realizmning asosiy tayanchi bo‘lgan voqelikning aniqligi mezonini shubha ostiga qo‘yadi. Hikoyaning ichki tuzilishi dualistik asosga tayanadi. Unda nur va zulmat, kasalxona va o‘rmon, mototsikl va xurofot, tibbiyot va qurbonlik kabi qarama-qarshiliklar bor. Bu ikki qutb o‘rtasidagi almashinish asta-sekin tezlashadi, bu esa o‘quvchini ruhiy noaniqlik (cognitive dissonance) holatiga olib keladi. Hikoyaning yakunida esa zamonaviy voqelik “yo‘qoladi”, shunchaki og‘riq, qo‘rquv va taqdir qoladi. Estetik nuqtayi nazardan, bu uslub magik realizmdan farq qiladi. Agar magik realizmda g‘ayritabiiy holatlar normal hayotning

<sup>1</sup> Todorov T. The Fantastic: A Structural Approach to a Literary Genre (R. Howard, Trans.). Ithaca, NY: Cornell University Press, 1973.

<sup>2</sup> Shaw D. L. Magical realism and the fantastic: Resolved versus unresolved antinomy. Neophilologus, 2002, 86(1), 29–38



tarkibiy qismidek ko‘rsatilsa, X. Kortasar asarlarida o‘quvchi chalg‘iydi, chalkashadi va haqiqat nisbiyligi anglashiladi. Shu orqali muallif fantastika va realizm sinteziga asoslangan epistemologik savollarga javob izlaydi. Hikoyadagi vaqt tuzilmasi ham muhim, ya‘ni unda voqealar xronologik emas, balki ong oqimi shaklida tasvirlanadi. Bu G. Jenet ta‘biri bilan aytganda, “temporal anaxronika” (xronologik chigallik) uslubiga yaqinlashadi<sup>3</sup>. O‘quvchi voqealar qay vaqtda sodir bo‘layotganini anglay olmaydi, bu esa voqelik haqidagi barqaror tasavvurni buzadi.

“Ishg‘ol qilingan uy” (“House Taken Over”) Xulio Kortasarning realizm bilan boshlanib, fantastik yakun topadigan eng sodda, ammo falsafiy jihatdan murakkab hikoyalardan biridir. Hikoya ikki personaj Irene va uning akasi (nomsiz) atrofida quriladi. Ular ajdodlaridan meros qolgan katta uyning yarmida tinch hayot kechirayotgan bo‘lishsa-da, asta-sekin noma‘lum kuch tomonidan uy bosib olinadi. Yozuvchi bu “kuch”ning asl tabiatini izohlamaydi, lekin aynan shuning o‘zi hikoyani fantastika janriga yaqinlashtiradi. Hikoyaning muhim semantik yo‘nalishi ichkari kirishdan (inwardness) iborat. Asarda uy shunchaki makon emas, balki ong, xotira, identitet timsolidir. Uyning bosib olinishi – imkonsizlik, ruhiy mag‘lubiyat va ijtimoiy inertlik natijasi. Irene va akasi uydan chiqib ketishga qarshilik ko‘rsatmaydi, kurashmaydi, balki shunchaki bo‘ysunadi. Bu jihat hikoyani allegorik darajaga ko‘taradi. Zotan uy Lotin Amerikasidagi burjua jamiyatining, aka-singilning chiqarib yuborilishi esa o‘z ijtimoiy rolini yo‘qotgan elita qatlamining metaforasidir<sup>4</sup>. Hikoya realistik tasvir bilan boshlanadi: maishiy detallar, kundalik hayot, oddiy ifodalar. Biroq voqealar rivoji davomida syujet sirli va tushunarsiz tus oladi. O‘quvchi realizmdan fantastik holatga o‘tadi va buni sezmay qoladi. Aynan shu Kortasarning ijodiy individualligidir, ya‘ni u fantastikani kundalik hayot ichiga joylashtiradi. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazardan, bu hikoyani psixologik fantastika sifatida ham talqin qilish mumkin. Uy psixik tuzilma, noma‘lum kuch esa ong osti hissiyotlari, tushkun xotiralar yoki ichki xavotirlar timsoli sifatida ko‘riladi. Irene va akasi uydan chiqqanlarida uy kalitni tashlab yuborishadi, bu esa ular uchun qaytish yo‘lining yo‘qligini bildiradi. Asar yakunida butun boshli “uy” (ya‘ni ong, milliy o‘zlik, tarix) begona kuchga topshiriladi.

<sup>3</sup> Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method (J. E. Lewin, Trans.). Ithaca, NY: Cornell University Press, 1980

<sup>4</sup> Pellegrini E. Narratives of the fantastical in Latin America. Latin American Literary Review, 1995, 23(46), 45–63.

“Axolotl” hikoyasi Xulio Kortasarning realizm va fantastika qorishmasidan iborat eng keskin badiiy tajribalardan biridir. Hikoya biroz joʻn tasvir, yaʼni Parijdagi akvariumga borib, ajabtovur salamandra (axolotl) baliqlarini kuzatishdan boshlanadi. Ammo bu kuzatish tez orada oʻzlik, shaxsiyat va ong oʻrtasidagi chegaralarning yoʻqolishiga olib keladi. Hikoya boshidagi “men” hikoya oxirida axolotlga aylangan boʻladi. Kortasar bu hikoyada ham realizmni faqat boshlangʻich nuqta sifatida ishlatadi: Parij, tramvay, zoopark... Bu obyektlar aniq realistik tafsilotlar asosida beriladi. Ammo bu realistik kontekst ichida oʻquvchi birdan fantasmagorik hodisa insonning boshqa jonzotga aylanishini his qiladi. Hikoya davomida kuzatuvchi inson asta-sekin axolotlga hamdardlik his qila boshlaydi, ularning “koʻzlarida ong borligini” ilgʻaydi: “I knew they were not animals”<sup>5</sup>. Bu jumla hikoyaning burilish nuqtasi hisoblanadi. Shundan boshlab, u oʻzini ulardan farqli mavjudot emas, balki ularning davomchisi, hatto ularning “ichidagi” aʼzodek his qiladi. Bu oʻzlik tushunchasining fantastik halokatidir, qahramon oʻzining insoniy maqomini yoʻqotadi. Bu hikoya metaforaga asoslangan, yaʼni “inson” oʻzligining noaniqligi, ruh va tana oʻrtasidagi aloqaning uzilishi. Bu, Sartr yoki Merleau-Ponty falsafasidagi “tana orqali dunyoni anglash” konsepsiyasiga yaqinlashadi. Axolotllar asarda oddiy jonzotlar emas, balki insoniyatning mavjudlik borasidagi biroz tushkun tasavvurlari timsolidir.

Xulosa qilib aytganda, Xulio Kortasar hikoyalarida fantastika voqelikning rad etilishi emas, balki uning chuqur kengaytmasi sifatida qaraladi. Shu tariqa, u oʻz ijodi orqali faqat janrni emas, adabiy tafakkurning oʻzini transformatsiya qiladi. Kortasarning bu yondashuvi nafaqat Lotin Amerikasi adabiyotining oʻziga xosligini ochib beradi, balki butun jahon adabiyotida fantastikaning gumanistik imkoniyatlarini koʻrsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Cortázar J. Axolotl. In P. Blackburn (Trans.), *Blow-Up and Other Stories* (pp. 12–15). New York: Pantheon Books, 1967.
2. Genette G. *Narrative Discourse: An Essay in Method* (J. E. Lewin, Trans.). Ithaca, NY: Cornell University Press, 1980.
3. Jackson R. *Fantasy: The Literature of Subversion*. London: Methuen, 1981.

<sup>5</sup> Cortázar J. Axolotl. In P. Blackburn (Trans.), *Blow-Up and Other Stories* (pp. 12–15). New York: Pantheon Books, 1967.

4. Pellegrini E. Narratives of the fantastical in Latin America. *Latin American Literary Review*, 1995, 23(46), 45–63.
5. Shaw D. L. Magical realism and the fantastic: Resolved versus unresolved antinomy. *Neophilologus*, 2002, 86(1), 29–38.
6. Todorov T. *The Fantastic: A Structural Approach to a Literary Genre* (R. Howard, Trans.). Ithaca, NY: Cornell University Press, 1973.
7. Obidjonova M. Genesis of flash fiction genre in the world literature // *International journal on integrated education*. – 2019.
8. Saporboyevna R. S. DRABBL JANRI: QISQALIKDA MO ‘JIZA // *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*. – 2025. – T. 3. – №. 35. – С. 134-142.
9. Kosimova A. DRABLLAR: TUZILISHI VA TARAQQIYOTI // *Иновационные исследования в современном мире: теория и практика*. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 81-85.
10. Obidjonova M. GENRE FEATURES OF SCIENCE FICTION, FANTASY, AND “FANTASTIKA” IN SOME SHORT STORIES OF RAY BRADBURY AND HOJIAKBAR SHAYKHOV // *Theoretical & Applied Science*. – 2021. – №. 3. – С. 110-115.
11. Teshaboyeva Z. et al. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Shuhrat Sirojiddinov Uzoq Jo‘raqulov Nozliya Normurodova.

---

# Research Science and Innovation House